

Millat tanlamas illatga qarshi maqsadli harakat

Unga qarshi kurashish, uni tag tubi bilan yo'qotish choralari deyarlik barcha davlatlarda borligi kuzatiladi. Bu illat korruptsiyadir. Uning oldini olishga qaratilgan turli yo'sindagi tadbirlarning muntazam ravishda tashkil etilishining ahamiyati katta. Taraqqiyotga to'siq bo'lувчи poraxo'rlik jamiyatning rivoji, sohalar yuksalishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Sobiq tuzum orqali saqlanib kelayotgan bu illatga qarshi kurashning huquqiy asoslarini o'rganish, ijtimoiy-iqtisodiy ildizlarini izlash muhim vazifalardandir. Bu borada so'z ketganda, 2017-yil 3 -yanvar kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunni imzolagani va u 2017-yil 4-yanvardan kuchga kirganini ta'kidlash o'rinnlidir. Ayniqsa, Qonun asosida bu illatga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha Prezident Farmoni va Davlat Dasturi ham qabul qilinib, joriy yilning 29-iyun sanasida muhtaram Prezidentimizning Qarori bilan mamlakatimizda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilgani e'tiborga molikdir. Joriy yilning 10-dekabrida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligining mexanizatsiyalash muhandislari instituti xotin-qizlar kengashining tashabbusi bilan "Korruptsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish mavzusida ZOOM platformasi orqali umumiy tadbir bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda Institutimiz rektori, professor O'ktam Pardaevich Umurzakov, O'zbekiston Respublikasi bosh prokururasining o'rribosari Svetlana Ortiqova, Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektori R.Choriev, Institut "Korruptsiyaga qarshi kurash" bo'yicha raisi, professor Altiev A.S. qatnashdilar. Ushbu yig'ilishni institutning Yoshlar bilan ishslash bo'yicha prorektori R.Choriev kirish so'zlar bilan ochib berdi. Shundan so'ng institutimiz rektori so'zga chiqdilar. Ular o'z so'zlarida 2003-yil 9-dekabr kuni Meksikada BMTning korruptsiyaga qarshi konvensiyasi imzolanganligi va ushbu kun Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida e'lon qilinganligi va shu tariqa 2004-yil 9-dekabr kunidan boshlab Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanishi to'g'risida gapirib o'tdilar.



Shundan suo'ng O'zbekiston Respublikasi bosh prokurorining o'rribosari Svetlana Baymurzaevna Artikova so'zga chikdi. U 2019–2020-yillarda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilinganligi, Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-may kuni "O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmonni imzolangani va Hujjat korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydonidagi ijobiy obro'-e'tiborini oshirishga qaratilganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Bu illat zanglash-chirish demakdir.

Idoraviy korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korruptsiyaga oid huquqbazarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi. Jinoyatchilikning oldini olishga yordam berish kerak. Hamma narsa jinoyatchilikdan kelib chiqadi. Korruptsiyaga qarshi kurashishda shafqatl bo'lish kerak emasligi borasida so'z yuritildi. Talabalarning qiziqishlari va savollaridan zavqlangan S.Artikova pandemiyadan so'ng birinchi uchrashuvni institutimiz yoshlari bilan o'tkazishga so'z berdi. So'ngra Altiev A.S. "Korruptsiyaga qarshi kurash" to'g'risida qo'yidagi ma'lumotlarni berib o'tdi. Korruptsiya hozirgi kunning dolzarb masalalardan biridir. O'zbekistonning xalqaro hujjatlarga qo'shilganligi, majburiyatlar organligi juda katta samara berayotganligi, yoshlarga rahnamolik qilish borasida so'z yuritdi. O'zingizga yaxshi ma'lum, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali muammoning yechimiga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada institut saytida ochilgan maxsus havola hamda telegramm ijtimoiy tarmog'idagi "STOPKORRUPTSUYA" platformasi muntazam ishlab turibdi. Talabalar korruptsiyaga holatlariga doir hatti-harakatlarni sezgudek bo'lsa ushbu kanal va havolaga bemalol ma'lumot qoldirishi mumkin. Shuningdek, institutda korruptsiyaga qarshi

kurashish bo'yicha ta'lif berishga mas'ul professor-o'qituvchilarning malakasini va kasbiy tayyorgarligini oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi malaka oshirish kurslarida 8 soatlik o'quv kurslarida muntazam ishtirok etib kelmoqdalar. Bugungi tadbir ham oliy ta'lif sohasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qadamlardan biri desak to'g'ri bo'ladi.

TIQXMMI matbuot xizmati